Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

NURULLOH GENCHNING "YOMG'IR" NA'TIDA RAHMAT TIMSOLI

Foziljon Ulash Zoda Rajabov*
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch-doktoranti
✉ foziljonrajabov5@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy turk shoiri Nurulloh Genchning "Yağmur" ("Yomg'ir") na'ti tahlil qilinadi. She'r mumtoz turk adabiyotidagi na't an'anasi bilan qiyoslanib, shoirning ushbu an'anaga qanday yondashgani ochib beriladi. Tahlil davomida "yomg'ir" timsolining she'rda bir necha ma'noda qo'llangani, xususan, Rasulullo (s.a.v.), ilohiy rahmat va oshiq murojaat qilayotgan suyukli zot bilan bog'liq holda talqin etilgani ko'rsatib beriladi. Bu jihat Fuzuliyning "Suv qasidasi"dagi suv timsoli bilan solishtirib izohlanadi. Shuningdek, she'rda na't uslubi bilan ishqiy talqin uyg'unlashgani, murojaat shakli g'azalga yaqinlashgani aniqlanadi. Maqolada shoir na't an'anasini shakl jihatidan saqlagan holda, unga yangi timsoliy mazmun berganligi xulosasiga kelinadi.

Kalit so'zlar

Nurulloh Gench, "Yomg'ir", na't, timsol, rahmat timsoli, Fuzuliy, "Suv qasidasi", mumtoz turk she'riyati, an'ana va yangilanish.

DOI: 10.5281/zenodo.22053886

KIRISH

Nurulloh Gench ijodida alohida o'ringa ega bo'lgan "Yağmur" [1:11-23] ("Yomg'ir) na't she'ri bo'lib payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga bag'ishlab yozilgan asar hisoblanadi. She'r jami 37 bo'limdan iborat bo'lib bunda 6-3-4 shaklidagi misralardan tashkil topgan. Ijodkorning "Omuzlarımda Dünya" [6:18] ("Yelkalarimda dunyo") nomli biografik asarida o'zining tug'ilib o'sgan joyi, tabiati va manzaralari, u yerda yashovchi samimiy, oqko'ngil insonlari haqida batafsil bayon etadi. "Yomg'ir" she'rining dunyoga kelishi haqida shoir shunday deydi:

"Buning tarixi bolalik davrlarim bilan bog'liq. O'sha kezlarda she'rxonlik kechalari doimo na't bilan yakunlanardi. Marhum Rizo amakim na't o'qirdi. Otam esa maqom kuylardi. Fuzuliyning "Suv" qasidasi o'qilar, tahlil qilinardi. O'sha davrlarda Rizo amakim shunday degandi: "Agar shoir na't yozmagan bo'lsa, u hali haqiqiy inson bo'lmapti". Shu gap hech xayolimdan ketmasdi. Na't yozish fikri universitetning birinchi kursida o'qiyotgan vaqtimdayoq kelgan, o'sha vaqtlarda she'rlarim allaqachon jurnallarda chop etila boshlagan edi. Ammo men: "Men ham na't yozishim kerak. Aks holda, men chinakam shoir bo'lolmayman", deb o'ylardim. Bu fikr 1990-yilgacha davom etdi. Men yaza olmadim. Ellikdan ortiq na'tlarni o'qib o'rganib chiqdim. Balki ellik martadan ortiq urinib ko'rgandirman. Yozgan har bir matnimga "Yomg'ir" deb nom qo'ydim. Aslida mening na'timning nomi boshidan beri "Yomg'ir" edi. U o'sha qishloq uyida shakllangandi" [2].

Nurullah Genchning "Yomg'ir" nomli na'ti sharifi sifatida tanilgan she'ri to'g'ridan-to'g'ri klassik turk adabiyotining an'anaviy ochilish uslublari bilan uyg'un:

Vâreden'in adıyla insanlığa inen Nûr
Bir gece yansıyınca kente Sibir dağından
Toprağı kirlerinden arındırır bir Yağmur
Kutlu bir zaferdir bu ebabil dudağından

Rahmet vadilerinden boşanır âb-ı hayat
En müstesna doğuşa hâmiledir kâinat
(Yaratganning nomi-la Insonlikka ingan Nur,
Tunda jilva sochgan on kentga Sibir tog‘idan.
Tuproqni g‘uboridan poklagaydir bir Yog‘mur
Muborak zafardir bu abobil dudog‘idan.
Rahmat vodiylaridan sochilur obi hayot
Eng mustasno go‘dakka homiladir koinot)[3]

Devon she’riyatida na’t yozish an’anasiga ko‘ra she’r dastlab Basmala (ya’ni Allohga hamd) va Rasulluloh (s.a.v.)ni madh etish bilan boshlanadi. “Musulmon xalqlari adabiyotlarida deyarli barcha asarlar Olloh hamdi va Muhammad na’ti bilan boshlanadi.” [4:8] Bu yerda ishlatilgan “Vâreden’in adıyla” ifodasi ham ushbu an’anaga zamonaviy yondashuv berganligini ko‘rish mumkin. “Vâreden” so‘zi mavjudotlarni yo‘qdan bor qilgan Allohni ifodalasa, “Nur” so‘zi Muhammad (sav)ga ishora qiladi. Muhammad (sav)ning nurdan yaratilganligi va butun koinotning uning nuridan vujudga kelgani haqidagi e’tiqod, u zotning nomlaridan birining “Nur” bo‘lishiga asos bo‘lgan. She’rda davom etadigan “Toprağı kirlerinden arındırır bir Yağmur” (“Tuproqni g‘uboridan poklagaydir bir Yog‘mur”) misrasi orqali Payg‘ambarning insonlarning orasini isloh qilguvchi, yomonlik va axloqsizliklardan poklovchi roli “yomg‘ir” ramzi bilan beriladi. Bu yondashuv klassik turk she’riyatida tez-tez uchraydigan “rahmat yomg‘iri” timsoli bilan to‘liq mos keladi. Yomg‘ir bu yerda oddiy tabiat hodisasi bo‘lib qolmay, insoniyatning gunohlardan poklanishini bildiruvchi ilohiy ne’matni ham bildiradi. Bu g‘oya Fuzuliyning “Suv qasidasi”da ham yaqqol ko‘rinadi. Fuzuliy suv timsoli orqali Rasulullohga bo‘lgan muhabbatini ifodalaydi. “Rahmet vadilerinden boşanır âb-ı hayat” (“Rahmat vodiylaridan sochilur obi hayot”) misrasi esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri klassik turk adabiyotining eng muhim timsollaridan biri bo‘lgan obi hayot (âb-ı hayat) tushunchasiga ulanadi. Bu motiv o‘limsizlik, haqiqat va ilohiy ishq ramzi sifatida qo‘llanilgan. Misradagi “rahmat vodiylari” ifodasi bilan birgalikda, Rasulullohning insoniyatga, najot va rahmat elchisi sifatida yuborilgani ta’kidlanadi.

Shoir Payg‘ambar Muhammad (sav)ga bag‘ishlab yozgan ushbu na’ti sharifida:

Hasretin alev alev içime bir an düştü,
Değişti hayal köşküm, gözümde viran düştü,
Sonsuzluk çiçeklerle donandı yüreğimde,
Yağmalanmış ruhuma yeni bir devran düştü
(Hasrating olov bo‘lib ichimga bir on tushdi,
O‘zgardi xayol dunyom, ko‘zimda vayron tushdi,
Boqiylik gullar bilan qurshab oldi qalbimni,
Talangan ruhimga yangi bir davron tushdi)

Ushbu misralarda shoir Payg‘ambar alayhissalomni insonlar qalbiga rahmat yomg‘iri kabi, cho‘llashgan ko‘ngillarga suv kabi, g‘arib qalblarga shifo bo‘lib kelgan zot sifatida ta’riflaydi. Shu bilan birga, she’rning boshqa talqinida bu holat oshiq qalbida kechayotgan ishqiy his-tuyg‘ular bilan ham izohlanadi. “Hasretin alev alev içime bir an düştü” misrasida sog‘inch bir lahza ichida oshiq qalbiga o‘tday tushganini, bu holat hayotini ham, xayolini ham o‘zgartirib yuborganini anglash mumkin. “Vaqtning eng kichik birligi “on” ya’ni lahza hisoblanadi. Lahza – inson xotirasiga muhr bo‘lib qolgan voqealarning ro‘y beradigan nuqtasidir. U osmonda chaqnagan chaqmoqqa o‘xshaydi. Chaqmoq yomg‘ir kelishini bildirsa, lahza ham taqdirdagi burilishlarning belgisi bo‘ladi. Shoxda pishmay turib qolgan meva bir zumda yerga tushgani kabi, vaqt mevaning pishishini ta’minlasa-da, uning uzilib tushishi bir lahzada sodir bo‘ladi. Shoir, yuragidagi sog‘inchning kuchini ifodalash uchun aynan “lahza” so‘zini tanlagan. Chunki sog‘inch bir lahzaga sig‘ganida, o‘zini eng kuchli ko‘rinishda namoyon qiladi. Bu yurakdagi barcha ortiqcha hissiyotlarni yoqib yuboradigan olovga aylanadi. Dunyoviy narsalarga berilgan e’tibor yo‘qoladi, qalbdagi ortiqcha izlar o‘chadi. Qalbning asl egasi o‘z taxtiga o‘tirganida esa inson nigohi teranlik kasb etadi. Muhammad Mustafo (s.a.v.)ning siymosi sharofati ila yaratilgan bu koinot, U zot (sav)siz inson ko‘zida tor makonga aylanadi. [1:149]

Yağmur, sayrılığıma seninle derman düştü

Beynimin merkezine ölümsüz ferman düştü
Silindi hayalimden bütün efsunu ömrün
Bir dönüm noktasında aklıma Rahman düştü
(Yomg‘ir dardimga sen ila darmon tushdi
Miyyamning markaziga o‘limsiz farmon tushdi
O‘chib ketdi hayolimdan barcha afsuni umrning
Bu burilish nuqtasida hayolimga Rahmon tushdi.)

She’rning ikkinchi bandida yomg‘ir malham va uyg‘onish ramzi sifatida tasvirlanadi. “Yağmur, sayrılığıma seninle derman düştü” (“Yomg‘ir dardimga sen ila darmon tushdi”) misrasida yomg‘ir – shoirning dardiga, ya’ni ichki iztiroblariga malham bo‘lib tushganini bildiradi. Bu ilohiy rahmatning inson qalbidagi og‘riqlarga davo bo‘lishini anglatadi. “Beynimin merkezine ölümsüz ferman düştü” – misrasida esa yomg‘ir (ya’ni rahmat) inson ongiga nur olib kelganini, unga ilohiy bir farmonni eslatganini bilish mumkin. Bu farmon Allohning hayot yo‘lini ko‘rsatib beruvchi belgisi bo‘lib, inson uchun hayot maqsadini anglashga undovchi ilohiy xitobdir. “Silindi hayalimden bütün efsunu ömrün” – dunyoviy hayotning vaqtinchalik va o‘tkinchi go‘zalliklari rahmat nuri ostida o‘z qadrini yo‘qotadi. Hayotning asl mazmuni Rahmonga (Allohga) yuz tutishda, Unga qaytishda ekanini ochiq bayon qilinadi. “Bir dönüm noktasında aklıma Rahman düştü” – misrasi esa hayotdagi o‘zgarish, ichki uyg‘onish sodir bo‘lgan eng muhim lahzani ifodalaydi. Bu – shoirning dunyoviy tashvishlardan yiroqlashib, Allohga yuzlangan holda ma’naviy jihatdan qayta tug‘ilgan onidir. She’rda yomg‘ir aynan shu ongni uyg‘otuvchi ham jismoniy, ham ma’naviy tetiklovchi kuch sifatida tasvirlanadi.

Ay gibisin; güneşler parlıyor gözlerinde
Senin tutkunla mecnun geziyor güneş ve ay
Her damla bir yıldızı süslüyor göklerinde
Sümeyrâ’yı arıyor her damlada bir saray
(Oy kabisan, quyoshlar porlar ko‘zlaringda
Sening ishqing ila majnun kezmoqda quyosh va oy
Har tomchi bir yulduzni bezamoqda samoda
Sumayroni qidirmoqda har tomchida bir saroy)

Shoir birinchi misrada Hazrati Payg‘ambar (sav)ni “oy”ga o‘xshatgan. Ayniqsa, klassik adabiyotda yorga nisbatan ishlatilgan bu o‘xshatish, ko‘plab shoirlar tomonidan ishlatilgani uchun ramzga aylangan. Yor jamolining go‘zalligi, yetishib bo‘lmasligi, qorong‘i tunni yoritishi kabi tavsiflardan kelib chiqib, yor bilan oy o‘rtasida o‘xshashlik o‘rnatilgan. Shu sababli, seviklilarning seviklisi bo‘lgan Hazrati Payg‘ambarimiz (sav) uchun ham bu o‘xshatishdan foydalangan shoirlar bo‘lgan. Shoirning Payg‘ambarimizni (sav) oyga o‘xshatishining yana bir sababi, boshqa misralardan kelib chiqib sahobalar yulduzlarga o‘xshatiladi.

Bu bandda “tomchi” so‘zi o‘xshatish tariqasida Payg‘ambarimiz (sav) o‘rnida ishlatilgan. Chunki u manbasini bevosita Allohdan olgan, quruqlashgan, qotib qolgan ko‘ngillarga muhabbat urug‘ini sepgan bir yomg‘ir bo‘lib kelgan. Uning birgina tomchisi ham ko‘ngillarni yerdan arshgacha ko‘tarishga qodirdir. Qalbiga ishq urug‘i qadalganlar jaholatning tubidan ilm va ma’rifat cho‘qqilariga chiqadi. Har biri yulduzga aylangan holda o‘zidan keyin keluvchilarga yo‘l ko‘rsatadi. Zulmatli kechalarga nur sochadilar. Ular uchun Payg‘ambarimiz (sav) otasidan, turmush o‘rtog‘idan, aka-ukalaridan, farzandlaridan ham azizroqdir, chunki U (sav) ular uchun suyuklidir.

She’rning so‘nggida keltirilgan misralar esa:

Yağmur, seni bekleyen bir taş da ben olsaydım
Çölde seni özleyen bir kuş da ben olsaydım
(Yomg‘ir, seni kutgan bir tosh ham men bo‘lsaydim
Cho‘lda seni sog‘ingan bir qish ham men bo‘lsaydim)

Bu baytda “yağmur” zohiran rahmat yomg‘iri bo‘lsa, botinan Allohning rahmati sifatida talqin qilinadi. “Nurullah Gench, ’rahmat’ni eslatishi sababli ’yomg‘ir’ o‘xshatmasi doirasida yondashgan ushbu uzun she’rining yakunida Payg‘ambar (s.a.v.)ga bo‘lgan chuqur muhabbatini va U zotga bu dunyoda yetisha olmaslik hasratini ifodalaydi.” “Seni kutayotgan bir tosh” iborasi hatto jonsiz, qattiq bir tosh ham ilohiy rahmatni kutib

sog‘inganini bildiradi. Shoir o‘zini o‘sha tosh o‘rniga qo‘yib, yuragi toshdek qotgan bo‘lsa ham, Allohning ishq yomg‘iri bilan yumshab, najot topishni istaydi. Tasavvuf adabiyotida “ko‘ngli toshdek qotgan” ifodasi ishqdan uzoqlikni bildiradi. Ishq hatto tosh yuraklarni ham sham kabi eritadi. Yunus Emro shunday deydi: “Işık (aşk) var, gönül yanar, yumşanur muma döner; Taş gönüller kararmış, sarp-katı kışa benzer.” [5:268] (“Ishq bor, ko‘ngil yonar, yumshab shamga aylanar, Tosh ko‘ngillar qoraygan, qahraton qishga o‘xshar”.)

Yomg‘ir she’rining davomida “Çölde seni özleyen bir kuş da ben olsaydım” (“Cho‘lda seni sog‘ingan bir qush bo‘lsam edi”) misrasi bor va unda “cho‘l” majozan ishq ayrilig‘i va ma’naviy chanqoqlik timsoli, “qush” esa ruhni bildiradi. Shoir o‘zini cho‘l o‘rtasida yomg‘irga (ya’ni ilohiy sevgiliga) tashna qush holatida ko‘rishni xohlaydi. Bu holat hijron holatidagi, suvga (rahmatga) tashna, firoqdan yonayotgan oshiqning holidir. Nurulloh Gench cho‘l tasvirini shunday keltiradi “Hazrat Payg‘ambar (sav) davrlarida ham o‘sha vaqtlarda sodir bo‘lgan voqealarga befarq qolgan, ularga javob bermagan odamlarning qalblari, dunyolari cho‘llashgan edi. Hazrat Payg‘ambar (sav) shunday bir cho‘lga payg‘ambar qilib yuborilgandilar. Shuning uchun cho‘l tasviri men uchun faqat o‘sha quruq cho‘l emas. Hatto, mening bir she’rimda bir misra bor: “Bir tomchi suv ber menga, ey cho‘l, hech yo‘q sen xafa bo‘lma.” Cho‘lning suv berishi... Cho‘l ichida bir gul kabi yashagan Hazrat Payg‘ambar (sav) dunyoga tarqatgan ma’naviy hayotning o‘zidir. “Sen menga bir suv ber”. Cho‘lning suvi nima edi? Payg‘ambar edi, cho‘l yasharib ketdi”. [2] Tasavvuf an’analarida oshiq cho‘lda chanqagan kishiga o‘xshatiladi. Yorning yo‘qligi yurakni kuydiruvchi qurg‘oqchilikdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Nurulloh Gench “Yomg‘ir” she’rida payg‘ambar nuriga bo‘lgan intiq-likni va u zotning butun olamga rahmat sifatida yuborilganini alohida satrlar orqali ifodalagan. Shu bilan birga, she’rda “yomg‘ir” timsoli bir necha ma’noda kelib, na’t uslubi bilan oshiqona talqinni birlashtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Genç N. Yağmur. – İstanbul: Timaş Yayınları, 2023. – S. 11.
2. Nurullah Gench bilan suhbat. – Istanbul, 2024.
3. https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/turk-sheriyatidan-mirzohid-muzaffar-tarjimasi.html
4. Ғаффорова З. Навоийнинг ҳамд ва наът ғазаллари. – Тошкент: Маънавият, 2001. – Б. 8.
5. Tatçı, M. (1997); Yunus Emre Divanı, İstanbul, MEB. Yayınları. – S. 268.
6. Genç N. Omuzlarımda Dünya. – İstanbul: Timaş Yayınları, 2022. – S. 18.